

IMOM BUXORIY ILMIY-TADQIQOT MARKAZI VA UNING ASOSIY VAZIFALARI**Abdumajidova Shohidaxon Isroiljon qizi**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘bek tili va adabiyoti universiteti Sotsiologiya
yo‘nalishi talabasi

shohidaxonabdumajidova05@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13137567>

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk mutafakkir, davlat arbobi, o‘zining qimmatbaho merosi bilan tarixda o‘chmas iz qoldirgan bobokalonimiz Imom al-Buxoriyning nomini ulug‘lagan holda uning nomi ostida 2017-yildan buyon o‘z faoliyatini yuritib kelayotgan, Samarqand viloyati Payariq tumanida joylashgan, Shovosil Ziyodov boshchiligidagi o‘zining tadqiqotlari bilan mamlakatimiz rivojiga o‘z hissasini qo‘shayotgan Imom Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Muhaddis, ilmiy yig‘in, mashoyixlar, ulamolar, ISESCO.

IMAM BUKHARI SCIENTIFIC RESEARCH CENTER AND ITS MAIN TASKS

Abstract. In this article, honoring the name of our grandfather Imam al-Bukhari, a great thinker, statesman, who left an indelible mark in history with his valuable legacy, under his name, which has been operating since 2017, is located in Payariq district of Samarkand region. We are talking about the international research center named after Imam Bukhari, which contributes to the development of our country with its research led by Shovosil Ziyodov.

Keywords. Muhaddis, scientific meeting, experts, scholars, ISESCO.

НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ЦЕНТР ИМАМА БУХАРИ И ЕГО**ОСНОВНЫЕ ЗАДАЧИ**

Аннотация. Данная статья чтит имя нашего деда Имама аль-Бухари, великого мыслителя, государственного деятеля, оставившего неизгладимый след в истории своим драгоценным наследием и действующего под его именем с 2017 года в Паярикском районе Самаркандской области. Упоминается о международном научно-исследовательском центре имени Имама Бухари, который находится под руководством Шовосила Зиядова, который своими исследованиями вносит свой вклад в развитие нашей страны.

Ключевое слово. Мухаддис, научное совещание, эксперты, ученые, ИСЕСКО.

Kirish. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida ham tadqiqot markazlarning soni ko‘payib bormoqda. Mamlakat rivojiga o‘z hissasini qo‘shib kelayotgan sotsiologik, ilmiy tadqiqot markazlari orasida O‘zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati Payariq tumanida

joylashgan Imom Buxoriy ilmiy-tadqiqot markazi ham mana 6 yildirki o'z tadqiqotlarini jamiyatimiz orasida o'tkazib kelmoqda. Ushbu markaz 2017-yil tashkil topgan bo'lib, hozirda sharqshunos-filolog-arabshunos, tarix fanlari doktori Shovosil Ziyodov direktor lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda. Bu tadqiqot markazi bilan hozirgi kunda Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikda ish olib boradi.

Yuqorida aytib o'tilgan markaz musulmon olamida Qur'ondan keyingi manba hisoblangan „Sahihul Buxoriy“ asarining muallifi, muhaddis olim Imom -Buxoriy nomiga qo'yilgan. Imom al-Buxoriy milodiy 810-yil 21-iyulda Buxoro shahrida ziyoli oilada tavallud topgan. To'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim al-Buxoriydir¹. Otasi Ismoil ibn-Ibrohim farzandining hayotida katta o'rin tutgan. O'z davrining yetuk muhaddislaridan bo'lgan otasi Malik ibn Alasga shogird hisoblanib, tijorat ishlari bilan shug'ullangan va Imom al-Buxoriyning ta'lim olishi uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratib bergan.² Bo'lajak hadisshunos olim 5-6 yoshidan islomiy ilmlarni, payg'ambarimiz hadislarini o'rganishga va yodlashga kirishadi. Taniqli muhaddislar – Doxiliy, Muhammad ibn Salom Poykandiy, Muhammad ibn Yusuf Poykandiy, Abdulloh ibn Muhammad Masnadiy va boshqalardan saboq olgan. Imom al-Buxoriy hayoti davomida ko'plab hadislar to'plagan, ularni sahih va nosahihga ajratgan olim hisoblanadi. Kelajak avlod uchun o'zidan ko'plab nodir asarlarni qoldirgan. Buxoriy 16yoshga yetguncha o'z yurtidagi mashoyixlar, ulamolardan hadislar eshitib, yozib olib xalifalikning turli viloyatlari tomon yo'l oladi. 825-yil esa Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan Makkaga kelib, haj ibodatini ado etadi. Onasi va akasini Buxoroga qaytarib, o'zi Makkada qoladi. Bu yerda faoliyat ko'rsatayotgan olimlarning ilmiy yig'inida qatnashadi. 827-yil Madinaga boradi va Madinadagi mashhur ulamolardan Ibrohim ibn Munzir, Mutrif ibn Abdulloh, Ibrohim ibn Hamza va boshqalar bilan muloqotda bo'lib, ulardan hadislar bo'yicha saboq oladi. Buxoriydan bizgacha „Kitob al-favoid“, „Al jome al-kabiyr“, „Xalq af'ol alibod“, „Al Musnad al-kabiyr“, „Kitob al-xiba“ va shu kabi nodir asarlar yetib kelgan. Buxoriy 879-yil 69 yoshida Samarqand shahrida vafot etadi.

Bobokalonimiz xotirasi O'zbekistonda munosib tarzda abadiylashtirilgan. Toshkent islom institutiga Buxoriy nomi berilgan. Biz ko'rib chiqayotgan tadqiqot markazi ham bobomiz xotirasiga bag'ishlangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish to'g'risida 2016-yilning oktabr oyida Toshkent shahrida

¹<http://www.ziyouz.com>

² Ешпулатов Б. Мозийдан таралган зиё. –Т.: «Sharq», 1998. 98 бет.

o'tkazilgan Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi tomonidan ilgari surilgan tashabbus asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-martdagi PQ-2855-son „O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”³gi qarori bilan Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-yanvarda Samarqand viloyatiga tashrifi chog'ida zamonaviy va milliy arxitektura yutuqlari asosida yangidan bunyod etilgan va jihozlangan markaz binosi hamda ko'kalamzorlashtirilgan 6,5ga maydonga ega bo'lgan bog' foydalanish uchun topshirildi.⁴ Markaz binosi ilmiy-tadqiqotlarda o'z faoliyatini olib borish uchun barcha zamonaviy qulayliklarga ega va zaruriy axborot texnologiyalari hamda mebellar bilan jihozlangan xonalar, zamonaviy kutubxona, Imom Buxoriy hayoti va faoliyati bilan bog'liq eksponatlar joylashgan muzey kabi xonalardan tashkil topgan.

Yurtimizdagi ushbu markaz o'ziga quyidagilarni asosiy vazifa sifatida belgilab oladi:

- hadis ilmining taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan Imom Buxoriy va boshqa mutafakkirlarning ilmiy va diniy merosini o'rganish, ular yaratgan asarlarning ilmiy-izohli tarjima va qiyosiy matnlarini nashr etish orqali o'zbek xalqi va jahon jamoatchiligi o'rtasida keng targ'ib qilish, ushbu mavzularga tegishli ilmiy tadqiqotlarni tizimli tashkil etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- jahonda sodir bo'layotgan globallashuv jarayonida dunyoda, mintaq va mamlakat hayotida islom dinining insonparvarlik mohiyatini uning ma'rifiy- madaniy rolini va rivojlanish yo'nalishlarini ilmiy asosda o'rganish hamda keng jamoatchilikka yetkazish;
- Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha islom tashkiloti (ISESCO) va mazkur yo'nalishda xorijiy davlatlarda tashkil etilgan markazlar bilan islom tarixi, falsafasi, huquqi, manbashunosligi va madaniyati bo'yicha ilmiy loyihalar, xalqaro hamkorlikdagi tadqiqotlarni amalga oshirish va uning natijalarini nashr etish;
- „Jaholatga qarshi – ma'rifat” g'oyasi asosida islom diniga nisbatan sodir etilayotgan asossiz xurujlarning oldini olish, shuningdek, diniy aqidaparastlik, mutaassiblik, ekstremizm, missionerlik, soxta tariqatlar va jamoalarning maqsadlari, g'oyaviy-aqidaviy negizlari, zamonaviy shakllarini shu bilan birgalikda faoliyat usullarini o'rganish, ularga qarshi kurashning ilmiy-ma'rifiy asoslarini ishlab chiqish hamda amaliyotda qo'llash uchun tavsiya etish;

³<https://lex.uz>

⁴<https://www.bukhari.uz>

- O‘zbekiston hamda xorijiy davlatlarning kutubxonalari va arxiv fondlarida saqlanayotgan allomalarning ijodiy merosiga tegishli va islom dunyosi uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan qo‘lyozma, toshbosma asarlarning elektron nusxalarini to‘plash, ularni kelajak avlodga yetkazish uchun tizimli ilmiy-tadqiqotlarni tashkil etish chora – tadbirlarni belgilash va amalga oshirish.

„Jaholatga qarshi – ma’rifat“ shiori ostida o‘z faoliyatini olib borayotgan ushbu tadqiqot markazi 3 bo‘limdan iboratdir:

-Ilmiy tadqiqotlar bo‘limi: ushbu bo‘limda 11 nafar ilmiy xodim faoliyat olib boradi va ushbu bo‘lim markazning tarkibiy tuzilmasi hisoblanadi

-Qo‘lyozma bilan ishlash va muzey bo‘limi: qo‘lyozmalar bilan ishlash va muzey bo‘limi Imom Buxoriy xalqaroilmiy-tadqiqot markazining tarkibiy tuzilmasidir.

-Axborot kutubxona va axborot texnologiyalari bo‘limi: axborot kutubxona va axborot texnologiyalari bo‘limida islomshunoslik kabi yo‘nalishlar o‘rganildi hamda bo‘limda 4 nafar xodim ish faoliyatini olib boradi.

REFERENCES

1. Ешпулатов Б. Мозийдан таралган зиё. –Т.: «Sharq», 1998. 183 бет.
2. Ешпулатов Б. Мозийдан таралган зиё. –Т.: «Sharq», 1998. 98 бет.
3. <https://lex.uz>
4. <https://www.bukhari.uz>
5. Ijtimoy tarmoqlar